

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XUDOYBERDIEV JAMSHID JURABOY O‘G‘LI

**INSTITUTIONAL O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA KAMBAG‘ALLIKNI
KAMAYTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Economical Science**

Xudoyberdiev Jamshid Juraboy o'g'li

Institutsional o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni kamaytirishning ijtimoiy-
iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish 3

Худойбердиев Жамшид Журабой угли

Совершенствование социально-экономических механизмов снижения
бедности в условиях институциональных изменений 29

Khudoyberdiev Jamshid Juraboy ugli

Improvement of socio-economic mechanisms of poverty reduction in
conditions of institutional changes 55

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 61

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XUDOYBERDIEV JAMSHID JURABOY O‘G‘LI

INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA KAMBAG‘ALLIKNI
KAMAYTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3179 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim tarmog‘ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Mamaraximov Bekzod Erkinovich**
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: **Mambetjanov Qaxramon Qurbandurdievich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abulkasimov Murod Xasanovich
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd)

Yetakchi tashkilot: **Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil “___” _____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 232-69-92, e-mail: tdu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 232-69-92, e-mail: tdu@tdiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil “___” _____dagi ___raqamli reyestr bayonnomasi).

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

B.D. Xajiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global raqobatda yetakchilik qilish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash sharoitida iqtisodiyotda kambag'allikni qisqartirish iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kambag'allikni qisqartirish orqali jamiyatdagi iste'molchilar sonini oshirish hamda ichki bozorni rivojlantirish asosida umumiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlardan hisoblanadi. "Kambag'allik insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo'lmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish uchun to'siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta'lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo'ladi"¹. Kambag'allik har qanday mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan holda mehnat bozorida turg'un raqobatsizlik holatini keltirib chiqaradi, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning o'zaro muvozanatini buzadi, daromadlar hajmini qisqartiradi hamda aholi xarid qobiliyatining pasayishi evaziga bozor umumiy talabini kamaytiradi. Shunga ko'ra, institutsional o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni kamaytirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash sharoitida institutsional o'zgarishlar orqali kambag'allikni kamaytirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish muammolariga qaratilgan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Kambag'allik darajasini pasaytirish asosida ijtimoiy tenglik va barqarorlikni ta'minlash, aholiga sog'lig'ini saqlash va ta'limni yaxshilash orqali uzoq muddatli rivojlanish sifatini oshirish, ishsizlik darajasini kamaytirish va ishlab chiqarish quvvatini oshirish, iqtisodiy faollik va samaradorlikni yuksaltirish, kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan siyosatlar va dasturlar orqali iqtisodiy islohotlar jarayonini rag'batlantirish, global iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirishning ta'sirchan vositalarini joriy etish, kambag'allikni o'lchash mezon va usullarini hamda uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyasini ishlab chiqish, kambag'allikni qisqartirishning institutsional asoslarini yaratish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston strategiyasida kambag'allikni qisqartirish, aholining turmush darajasini oshirish va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim ustuvorligi sifatida belgilangan bo'lib, unda kambag'allikni qisqartirishning to'g'ri va eng samarali usuli iqtisodiyotda band aholi sonini oshirish, ularga munosib va mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan to'liq ish bilan band bo'lishlikni ta'minlash, qishloq joylarida tadbirkorlik uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik

¹BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining «Kambag'allikni o'lchash bo'yicha qo'llanma». 2017-yil. Nyu-York, Jeneva. - www.undp.org.

hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak"². Binobarin, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi aholining ma'naviy yuksalishi va moddiy farovonligini oshirishga qaratilganligini hisobga olib, yaqin kelajakda aholining ish bilan unumli bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, aholining turmush darajasini oshirish masalasi hozirda davlat va jamiyat oldida hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Institutsional o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni kamaytirishning asosiy yo'nalishlari bo'lgan norasmiy ish bilan bandlikni qisqartirish va yangi ish o'rinlarini tashkil etishni ko'paytirish hamda yoshlarni zamonaviy mutaxassisliklar va kasb-hunarlariga tayyorlashni strategik yondashuvlari bo'yicha amaliy va ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy yo'naltirilgan raqamli iqtisodiyot talablari asosida yetarlicha olib borilmaganligi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini yanada oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 21-dekabrgi PF-269-son "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2023- yil 31-yanvardagi PQ-39-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-martdagi 122-son "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiyot fanining mashhur namoyandalari Platon, Gegel, J.Keyns, A.Marshall, J.Mill, D.Rikardo, A.Smit, M.Fridman, F.Xayek va boshqa olimlarning asarlarida kambag'allik va uni kamaytirishning nazariy asoslari o'z ifodasini topgan³.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 25-yanvar, № 19 (7521).

³Keynes, J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. - N.Y.: BN Publishing, 2008. -296p.; Маршал А. Основы экономической науки. / Пер. с англ. – М.: Эксмо, 2007 г. -832 с.; Милль Дж.С. Автобиография. История моей жизни и убеждений. / Пер. с англ. – М.: Рипол-Классик, 2020 г. -384 с.; Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. / Пер. с англ. – М.: Эксмо, 2016 г. - 1040 с.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. / Пер. с англ. – М.: Эксмо, 2016 г. -1056 с.; Фридман М., Фридман Р. Свобода выбирать: Наша позиция / Пер. с англ. – М.: Новое издательство, 2007. - 356 с.; Хайек Ф.А. Конституция свободы / Пер. с англ. – М.: Новое издательство, 2018 г. - 528 с.

Kambag'allikni kamaytirish bo'yicha turli yondashuvlar MDH mamlakatlari olimlaridan Y.L.Aleksandrov, O.E.Aleksandrova, Y.I.Beglova, V.S.Sicheva, V.D.Roik, N.Ivanov, N.Y.Blinichkina, V.N.Bobkov, I.V.Shugaeva, O.Belokrilova, S.S.Yaroshenko, N.Volgin, A.Maxmutov, I.S.Sazanov va boshqalar asarlarida o'z ifodasini topgan⁴.

O'zbekistonda institutsional o'zgarishlar sharoitida kambag'allik, uning oqibatlari, kambag'allikni qisqartirish muammolari masalalarini o'rganishga Q.X.Abduraxmonov, B.B.Berkinov, N.Jumaev, Sh.I.Mustafaqulov, M.X.G'aniev, U.A.Vosiqov, R.R.Xasanov, N.K.Zakirova, R.F.Jumanova, M.K.Abdullaeva, Z.A.Musaeva katta hissa qo'shganlar⁵.

O'zbekistonda olib borilayotgan institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadi kambag'allikni kamaytirish muammosi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, kambag'allik darajasini aniqlashning ijtimoiy- iqtisodiy mohiyati va uni qisqartirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar tizimli tadqiq etilmaganligi hamda uslubiy va konseptual yondashuvlar yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi, ushbu muammolarni nazariy, uslubiy va amaliy jihatdan o'rganishni talab etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Sambhram universiteti Jizzax shahridagi filialining ilmiy-

⁴Aleksandrov E.L., Aleksandrova O.E. Меры борьбы бедностью: Зарубежный и отечественный опыт. // Фундаментальные исследования, 2015. С.102, Beglova E.I. Бедность как социально-экономическое явление. Автореф. дисс. на соискан. ученой степени докт. экон. наук, 2014. С. 11.В.С.Сычева. «Бедность и её измерение», Социология:4М, 2011, №14, Роик, В. Д. Экономика развития: неравенство, бедность и развитие : учебное пособие для вузов / В. Д. Роик. Москва : Изд.Юрайт, 2023. 474 с. - ISBN 978-5-534-11787-5. Текст : электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт].- <https://urait.ru/bcode/518578> (дата обращения: 31.08.2023)., Иванов, Н. Глобализация и бедность / Н. Иванов, Н. Гоффе, Г. Манусова // Мировая экономика и международные отношения. 2010. №9 - с 29-43. Блиничкина Н.Ю., Ходжаев З.К. Бедность как глобальный феномен: проблема и последствия. <https://cyberleninka.ru/> Бедность как глобальный феномен: проблема и последствия (дата обращения: 17.04.2021, Бобков В.Н., Гулюгина А.А., Чесалкина Е.Ю.Ежегодный мониторинг неравенства качества и уровня жизни населения России за 2010 год // Уровень жизни населения регионов России. 2011. №10. -С. 3-39. Шугаева И.В. Методологические аспекты феномена бедности в современном обществе. // Электронное научное издание «Ученые заметки ТОГУ» 2016, Том 7, №4, С. 8432. Сазанов И.С. Бедность: Национальные и международные критерии // Челябинский гуманитарий. 2012, - №3(20). – С.80-84.

⁵ Q.X. Abduraxmonov Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abduraxmonov tahriri ostida. – T.: «Iqtisodiyot». 2013. – 418 b.; B.B. Berkinov Institutsional iqtisodiyot: Darslik. 5-nashr, qayta ishlangan. – T.:Iqtisodiyot, 2018.- 260-bet; N. Jumayev Koronavirus ortidagi iqtisodiy muammolar, kambag'allik, oshayotgan tashqi qarz va YeOII. 16.04.2020. <https://kun.uz>; Mustafaqulov Sh.Murodullayev va boshq. O'zbekistonda kambag'allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasida. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali. 2020 yil, № 1; M.X. G'aniev Innovatsion iqtisodiyotning shakllanish sharoitida aholi farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoref.-Toshkent, 2023. 18 b; U.A Vosiqov Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan sharoitda aholi daromadlari tabaqalanishi va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishlari. I.f.f.d. (PhD) diss.avtoref. T.2022. 20 b; R.R. Xasanov Shakllanayotgan bozor munosabatlari tizimida daromadlar va ularning tabaqalanishi. Iqt. fan. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoref.-Toshkent, 2005. -40 b.; N. Zakirova "Совершенствование системы социальной защиты населения в условиях социально-ориентированной рыночной экономики (на примере семей Республики Узбекистан". – Т. 2001, 24 s.; R.F. Jumanova Aholi turmush darajasi: ko'rsatkichlari va uni oshirish yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: 2008, 27 b.; M.K. Abdullayeva Ijtimoiy himoya va uni tartibga solishni takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: 2008, 25 b. Z.A. Musayeva O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirishda ta'sir qiluvchi omillarni ekonometrik tahlili I.f.f.d. (PhD) diss. T.2023. 20 b.

tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №ATD-2-29 «Mehnat bozorining samarali rivojlanish istiqbollari» mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda institutsional o‘zgarishlar sharoitida kambag‘allikni kamaytirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

institutsional islohotlar sharoitida kambag‘allikning yuzaga kelishi sabablari, tasnifiy holati, uni qisqartirishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish;

O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allik darajasini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati hamda uni qisqartirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

rivojlangan xorijiy davlatlarning kambag‘allikni kamaytirish borasida tajribasi va undan O‘zbekiston Respublikasida foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish;

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, aholining turmush darajasi, ijtimoiy himoya tizimi ko‘rsatkichlari tahlilini amalga oshirish;

kambag‘allik holatida yoki chegarasida yashayotgan aholi qatlamini hududlarda kambag‘allikdan chiqarish uchun ajratilayotgan kreditlar va aholi tomorqalaridan samarali foydalanishda mikroklaster ahamiyatini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

respublikada kambag‘allikni qisqartirish va aholining daromad manbalarini oshirishning zamonaviy shakllarini takomillashtirish istiqbollari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va kambag‘allikni kamaytirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib kambag‘allikni qisqartirishda yuzaga keladigan institutsional, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy tahlil, ekonometrik tahlil va prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

mazmuni alohida shaxs yoki oilalar iqtisodiy holatining ko‘rsatkichi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini aks ettiruvchi xususiyat ekanligi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra kambag‘allikni vujudga kelishi va kengayishining asosiy omillari mahalliy-hududiy shart-sharoitlarga bog‘liqligini ifodalovchi institutsional nazariyalarga muvofiq mahallaning birlamchi ixtisoslashuvi natijasida kelib chiquvchi yangi, qo‘shimcha imkoniyatlar asosida ikkilamchi mahallalararo ixtisoslashuv doirasidagi iqtisodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish asosida aholi bandligi va daromadini oshirish taklifi asoslangan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra “zanjirli ta’sir samarasi” yondashuvi mazmunidan kelib chiqqan holda mahalliy hokimiyat kesimida iqtisodiy, ma’muriy, tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy vositalarni jalb etgan holda aholini kambag‘allik ta’siriga tushib qolishining oldini olishga yo‘naltirilgan maxsus komissiya faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklifi asoslangan;

O‘zbekistonda kambag‘allik darajasining ulushini aniqlash hamda unga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi korrelyatsion-regression bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kambag‘allik darajasini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va uni qisqartirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan;

kambag‘allikka qarshi kurashish sohasida institutsional va tizimli yondashuv qo‘llanilishi asosida kambag‘allik darajasi va uni qisqartirishda mahallaning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, aholining kambag‘al qatlami daromadini oshirishga safarbar etish yo‘llari samaradorligini oshirish bo‘yicha tadbirkorlik subyektlarining mavjud muammolarini tezkorlik bilan hal etish va ularning faoliyatini kengaytirish uchun zarur choralarini ko‘rish nuqtai nazardan takomillashtirilgan;

institutsional islohotlarning qisqa, o‘rta va uzoq muddatlarda kambag‘allikni qisqartirishning strategik maqsadlarini hisobga olib uni qisqartirishning konseptual asoslari takomillashtirilgan;

xalqaro tajribalar asosida mamlakatda aholi qatlamlari orasida kambag‘allik toifasiga tushib qolganlarni ijtimoiy muhofaza qilishga yo‘naltirilgan ko‘rsatkichlar aniqlangan;

kambag‘allikni qisqartirish, aholining turmush darajasini oshirish va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim ustuvorligi sifatida institutsional islohotlar natijalarini asosiy yo‘nalishlari tavsiflangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda foydalanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, shuningdek, tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma’lumotlaridan foydalanilgani hamda xulosa va takliflar tegishli tarkibiy tuzilmalarda amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nazariy-uslubiy ahamiyatga molik ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan aholining turmush darajasini oshirish, daromad manbaalarini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tizimli tahlil etish, kambag‘allikni qisqartirishdagi muhim yo‘nalishlarni takomillashtirishning uslubiy asoslarini va ilmiy-tadqiqot ishlarining nazariy-metodologik apparatini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va boshqa davlat boshqaruvi organlari uchun tahliliy tavsiyalar tayyorlashda, oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan «Iqtisodiyot nazariyasi», «Institutsional iqtisodiyot», «Ijtimoiy siyosat» fanlarining ishchi-o‘quv dasturlarini takomillashtirish va talabalarga ta’lim berish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda institutsional o‘zgarishlar sharoitida kambag‘allikni kamaytirishning ijtimoiy-iqtisodiy

mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "kambag'allik" tushunchasining iqtisodiy mazmuni alohida shaxs yoki oilalar iqtisodiy holatining ko'rsatkichi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini aks ettiruvchi xususiyat ekanligi nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan «Iqtisodiyot» nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-1137-302-son buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi talabalarda ijtimoiy shaxs yoki oilalar iqtisodiy ahvolining ko'rsatkichi sifatida ularning holatini ifodalab, iqtisodiy sharoitlarini aks ettiruvchi xususiyat ekanligi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan "kambag'allik" tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkonini bergan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra kambag'allikni vujudga kelishi va kengayishining asosiy omillari mahalliy-hududiy shart-sharoitlarga bog'liqligini ifodalovchi institutsional nazariyalarga muvofiq mahallaning birlamchi ixtisoslashuvi natijasida kelib chiquvchi yangi, qo'shimcha imkoniyatlar asosida ikkilamchi mahallalararo ixtisoslashuv doirasidagi iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yish asosida aholi bandligi va daromadini oshirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-avgutdagi "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari faoliyati samaradorligini yanada oshirish bo'yicha namunaviy konsepsiyani tasdiqlash to'g'risida"gi 450-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 01/00-26/00-259 xdfu-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi mahallada aniqlangan aholi va tadbirkorlik subyektlarining hududiy darajadagi muammolarini hokim yordamchilari bilan mahalla yettiligi hamkorlikda tezkorlik bilan bartaraf etish choralari ko'rilganligi sababli tadbirkorlarning faoliyati yanada jadallashishiga imkon yaratgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "zanjirli ta'sir samarasi" yondashuvi mazmunidan kelib chiqqan holda mahalliy hokimiyat kesimida iqtisodiy, ma'muriy, tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy vositalarni jalb etgan holda aholini kambag'allik ta'siriga tushib qolishining oldini olishga yo'naltirilgan maxsus komissiya faoliyatini yo'lga qo'yish taklifi O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 01/00-26/00-259 xdfu-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-avgustdagi "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari faoliyati samaradorligini yanada oshirish bo'yicha namunaviy konsepsiyani tasdiqlash to'g'risida"gi 450-son qaroriga muvofiq, «mahallabay» ishlash tizimi orqali kambag'al aholi bilan

manzilli ishlash yo'llari samaradorligini oshirish yo'nalishida aholini kambag'allikdan chiqarish dasturlarini shakllantirish va ularning ijrosini tashkil etishga xizmat qilgan;

O'zbekistonda kambag'allik darajasining ulushini aniqlash hamda unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 01/00-26/00-259 xdfu-son ma'lumotnomasi). Mazkur prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish mamlakatimizda iqtisodiy o'sish va aholi daromadlarini oshirish asosida kambag'allik darajasini 2026-yilga qadar 2 barobar kamaytirishning tizimli yo'naltirilgan iqtisodiy vositalarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya kommissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 5 ta ilmiy maqola (4 ta mahalliy, 1 ta xalqaro nashrlarda), 9 ta ma'ruza tezislari ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Mazkur dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, jami 127 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti, predmeti ifodalangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Kambag'allik tushunchasining mazmuni, mohiyati va uni yuzaga kelishining nazariy-konseptual asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida kambag'allik tushunchasining mohiyati va unga doir ilmiy nazariyalarning rivojlanishi, O'zbekiston Respublikasida kambag'allik darajasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar va uni aniqlash mezonlari o'rganilgan hamda kambag'allikni qisqartirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi qo'llanilishi bayon etilgan. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda kambag'allikning kelib chiqishi, uning oldini olish, aholi daromadlarini oshirish, ijtimoiy muhofaza tizimini takomillashtirish masalalari global muammo darajasida o'rganilgan. Iqtisodiy adabiyotlarda kambag'allik tushunchasining mohiyati, mazmuni ochib berilgan va unga doir ilmiy nazariyalarning rivojlanishi keltirilgan. Mazkur kategoriya ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida mamlakatning iqtisodiy

rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liq, shuning uchun uning namoyon bo‘lish shakllari vaqt va makonda farqlanadi.

Dissertatsiya ishida nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra “kambag‘allik” tushunchasining iqtisodiy mazmuni alohida shaxs yoki oilalar iqtisodiy holatining ko‘rsatkichi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini aks ettiruvchi xususiyat ekanligi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan. Bunda, eng avvalo, kambag‘allik tushunchasining mohiyati bo‘yicha xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy fikrlari, yondashuvlaridan kelib chiqib, unga berilgan ta’riflari o‘rganilgan (1-jadval).

1-jadval

Kambag‘allik tushunchasining mohiyati bo‘yicha xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta’riflar⁶

Muallif	Ta’rif
S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzi	Kambag‘allar – bu daromadlari jamiyatning joriy iste’mol standartlari doirasida ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli bo‘lmagan jismoniy shaxslar va uy xo‘jaliklaridir. Ba’zi oilalar jismonan tirik qolishga imkoniyati mavjud bo‘lsada, axloqiy-madaniy jihatdan cheklanadi. Buning boisi ularning daromadlari belgilangan darajadan ancha past bo‘ladi ⁷ .
J.Stiglis	Kambag‘allik omil sifatida vertikal harakatchanlik pasayishiga, ayniqsa, uzoq muddatli “hissa qo‘shadi” va butun aholining mehnat unumdorligini pasaytiradi ⁸ .
S.S.Yaroshenko	Kambag‘allik – inson, ijtimoiy guruhning, mamlakatning umumiy qabul qilingan yashash sharoitlarini saqlab qolish uchun zarur resurslar yo‘qligi yoki yetishmasligi bilan ajralib turuvchi holati ⁹ .
M.X.G‘aniev	Kambag‘allik – bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘zgaruvchan daromadlar tengsizligi va ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy, ekologik, demografik jarayonlar bilan bog‘langan munosabatlarning mahsuli bo‘lib, insonlarning minimal iste’moli uchun hayotiy zarur ne‘matlarning yetarli bo‘lmasligi tushuniladi ¹⁰ .
R.R.Hasanov	Kambag‘alliklikning mavjudligi ijtimoiy hodisa bo‘lib, iqtisodiyotning darajasi va islohotlarning samarasiga bog‘liq bo‘ladi. Yangi iqtisodiy munosabatlar va iqtisodiyot asoslari kambag‘allikning u yoki bu ko‘rinishini keltirib chiqaradi. Yuzaki qaraganda, kambag‘alliklik subyektning o‘ziga bog‘liqligi, nochor ahvolda kun kechirishida kishining o‘zi aybdordek tuyuladi ¹¹ .
O.X.Maxmudov	Kambag‘allik – bu hayot uchun muhim bo‘lgan, eng zarur minimal ehtiyojlarni qondira olmaydigan, ishga layoqatli bo‘lib, o‘zi xohlagan ishlarni davom ettirishi mumkin bo‘lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhni iqtisodiy holatining o‘ziga xos xususiyatidir ¹² .
A.V.Kolosova	Kambag‘allik – bu odamlarga jamiyat tomonidan e’tirof etilgan eng quyi standartlar darajasida iste’mol qilishga imkon bermaydigan turmush sharoiti ¹³ .
Mualliflik ta’rifi	Kambag‘allik – bu shaxs yoki oilaning turmush kechirishi, mehnat layoqatini saqlab turishi uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlarining eng kam darajasini qondirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan iqtisodiy holatini ifodalovchi ko‘rsatkich.

⁶ Tegishli adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁷ Фишер С, Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. – Москва, Дело-ЛТД, 1995. с. 864

⁸ Стиглиц Дж. Цена неравенства. Чем расслоение общества грозит нашему будущему: – М.: Эксмо, 2015. с.161.

⁹ Genderni istisno qilish rejimidagi kambag‘allik. <https://polit.ru/article/2010>

¹⁰ G‘aniyev M.X. Innovatsion iqtisodiyotning shakllanish sharoitida aholi farovonligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishlari. Iqt. fan. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoref.-Toshkent, 2023. 31 b


¹¹ Kambag‘allikning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari. “Yangi o‘zbekiston iqtisodiyotining makroiqtisodiy barqarorligini taminlash: muammolar, tahlillar va natijalar” konf.tezislari to‘plami. -591 B.

¹² Oilalarda kambag‘allikni qisqartirish omillari “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021-yil 269 b.

¹³ Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник/ Под общ. ред. А.В. Колосова. М.: РАГС, 2001. С. 428

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, olim va mutaxassislar tomonidan kambag'allik tushunchasi turlicha talqin qilinib, u o'z mazmuniga ko'ra odamlarning moddiy himoyasizligining o'ziga xos holati, qachonki odamning daromadi yoki oilalar hayoti uchun ijtimoiy zarur bo'lgan iste'molni saqlashga imkon bermaydi¹⁴.

Yuqoridagi "kambag'allik" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bo'yicha bayon etilgan ta'riflarning eng muhim va asosiy jihatlarini mantiqan ajratib olish hamda uzviy tarzda ifodalash jarayonini quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm. “Kambag'allik” tushunchasi bo'yicha ta'riflarning eng muhim va asosiy jihatlarini uzviy tarzda ifodalash jarayoni¹⁵.

Yuqoridagi chizmada ifodalangan jarayonlarni batafsil ko'rib chiqamiz:

1) ma'lumki, kambag'allik darajasini turli miqyosda baholash mumkin: alohida shaxs, shaxslar guruhi (oila, hududiy birlik (masalan mahalla), korxonalar va h.k.), ma'muriy hududiy birlik (tuman, shahar, viloyat), mamlakat va boshqalar. Fikrimizcha, mazkur tushunchaning mohiyatini ochib berishda “alohida shaxs” va “oilalar” miqyosida berilishi mantiqiy jihatdan yetarli hisoblanadi. Chunki, qolgan barcha miqyoslar ushbu ikkita o'lchamning turli darajalardagi majmui, yig'indisi hisoblanadi;

2) “kambag'allik” tushunchasining mazmuni bevosita alohida shaxs yoki oila a'zolarining ehtiyojlarining qondirilishi bilan bog'liq. Shunday ekan, bu o'rinda ehtiyojlarning eng kam darajasini aniqlash to'g'ri bo'ladi. Bunda barcha ehtiyojlarni ularning ikkita asosiy guruhi – turmush kechirish bilan bog'liq hamda mehnatga layoqatni saqlab turish bilan bog'liq ehtiyojlar orqali ifodalash maqsadga muvofiq;

3) ehtiyojlar tarkibi mazmun va shakl jihatidan xilma-xil bo'lgani sababli ularni qondirish imkoniyatini ushbu maqsadda sarflanishi mumkin bo'lgan daromad (qiymat) orqali ifodalash to'g'ri bo'ladi;

4) kambag'allik o'z mazmuniga ko'ra, ehtiyojlarning eng kam darajasini ta'minlash uchun sarflanadigan daromad (qiymat)ning miqdoran ortda qolishini anglatsada, biroq real hayotda u aniq ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar orqali ifodalanadi;


¹⁴ <http://pubs.carnegie.ru> – Библиотека публикаций Московского центра Корнеги

¹⁵ Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

5) pirovadida kambag'allik yuqorida tasvirlangan iqtisodiy holatni ifodalovchi ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan nazariy qarashlar, ta'riflarga asoslanib, biz quyidagi mualliflik ta'rifini ilgari suramiz: **kambag'allik – bu shaxs yoki oilaning turmush kechirishi, mehnat layoqatini saqlab turishi uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarining eng kam darajasini qondirish imkoniyatiga ega bo'lmagan iqtisodiy holatini ifodalovchi ko'rsatkich.**

Shu o'rinda biz aholining kambag'al qatlami mamlakatga xos bo'lgan tezkor iqtisodiy o'sishdan naf olish imkoniyatidan mahrum bo'libgina qolmay, jamiyatning turli sohalarida ishtirok etish imkoniyati cheklanganligi tufayli rivojlanishga ham hissa qo'sha olmaydi, degan fikrga qo'shilamiz.



2-rasm. Kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillar ¹⁶.


O'zbekistonda kambag'allik tushunchasi 2020-yilgacha "yopiq mavzu" sifatida belgilanib, uning o'rniga esa "ijtimoiy himoyaga muhtojlar", "kam

¹⁶Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

ta'minlanganlar" tushunchasi bilan ifodalangan. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan ochiq demokratik siyosat tufayli mazkur muammoning mavjudligi, uning yechimi bo'yicha chuqur tahlillarni amalga oshirish, uni pasaytirish va kelajakda bartaraf etish haqida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Odatda kambag'allikning kelib chiqish sabablari turli xil bo'lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin: iqtisodiy, ijtimoiy, tibbiy, ta'lim, siyosiy, mintaqaviy-geografik omillar (2-rasm).

Inson kamoloti indeksida umr davomiyligi alohida qayd etilib, unga ko'ra, aholi tabiiy va mexanik harakatining ko'rsatkichlari, aholining jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari, nogironlik darajasi, kasallanish va uning yoyilishi to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etiladi (3-rasm).




3-rasm. Inson kamoloti darajasiining elementlari¹⁷.

Natijada qishloq xo'jaligi sektorini rivojlantirish, rivojlanishdan ortda qolayotgan hududlarni sanoatlashtirish, qishloqlarning ahamiyatini tubdan o'zgartirish va ularni rivojlantirishga erishildi. Xalqaro kambag'allik chegarasi bo'yicha Xitoy kambag'allik darajasi ko'rsatkichi quyidagi rasmda keltirilgan (4-rasm).


Shuningdek, boshqa ba'zi davlatlar masalan, Bangladeshda qashshoqlikka barham berish borasida kambag'allarning imkoniyatlarini kengaytirish, tengsizliklarni bartaraf etish va ularga o'zlarini va oilalarini boqish hamda jamiyatlarining barqaror o'sishiga hissa qo'shish imkoniyatlarini berish nuqtai nazaridan bir qator vazifalar belgilandi. Bu borada taraqqiyot maqsadlarini to'yib ovqatlanmaslik, kasallik, savodsizlik, qashshoqlik, ishsizlik va tengsizlikni bosqichma-bosqich kamaytirish va oxir-oqibat bartaraf etish nuqtai nazaridan belgilanib, Grameen Bank (mamlakatdagi eng yirik mikrocredit beruvchi) Mikrocredit sxemasi orqali Bangladeshdagi qishloq kredit tizimiga pul kiritdi. The Economist jurnalining ma'lumotlariga ko'ra, mikrocreditlar Bangladeshda umumiy aholining 59% (qishloqlardagi) qashshoqlikni 1991-yilgi 92%dan 1996-yilga 53%gacha tushirdi.

¹⁷ www.hdr.undp.org



4-rasm. Xitoyda qashshoqlik darajasi ko'rsatkichining o'zgarishi¹⁸.

Dissertatsiyaning «O'zbekiston Respublikasida kambag'allik darajasi va uni qisqartirishning tendensiyalari va omillari» deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirishning institutsional va huquqiy asoslari, aholi daromadlarini oshirish va kambag'allik darajasini qisqartirish mexanizmlari hamda iqtisodiy o'sish va aholi daromadlarini oshirish asosida kambag'allikka tushiruvchi omillar ta'sirini kamaytirish tendensiyalari to'g'risida fikrlar yuritilgan.



(uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan foiz hisobida)¹⁹

5-rasm. O'zbekistonda aholi soni va kam ta'minlangan aholining ulushi o'rtasidagi nisbat²⁰.

¹⁸ www.worldbank.org.

¹⁹ 2021-yil ma'lumoti Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 544- sonli qaroriga asosan kambag'allik, aholi daromadlarini minimal iste'mol xarajatlari miqdoriga nisbatan solishtirish orqali hisoblangan. Viloyatlar kesimida jahon bankining hisob-kitoblariga asosan. Eslatma: Jahon banki tavsiyasiga ko'ra, kam ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichi 2020-yilgacha kunlik 2100 kkal. dan kelib chiqib hisoblangan. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>

²⁰ <http://stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Bizga ma'lumki, O'zbekistonda kambag'allik darajasini kamaytirishga doir aholining ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarini amalga oshirishda institutsional yondashuv qo'llanilishida bir qancha vazirlik, idoralar faoliyatini va vazifalarni muvofiqlashtirish va optimallashtirish maqsadida o'zgartirildi. Mamlakatimizda 2017-yil aholining kambag'allik darajasi 11,9 foiz, 2018-yil 11,4 foiz, 2019-yil 11,5 foiz, 2020-yil 11,5 foizni tashkil qildi. 2023-yilda esa minimal iste'mol xarajatlaridan kelib chiqqan holda hisoblandi va kambag'allik darajasi 11 foizni tashkil qildi (5-rasm).

“Kambag'allikning zamonaviy nazariyalarining eng keng ko'lami keltirilgan A.Addae-Koranke tomonidan tayyorlangan tanqidiy maqola (Addae-Korankye 2019)da kambag'allik rivojlanishining sabablari va modellarini tushuntiruvchi quyidagi nazariyalar yoritilgan: individual yetishmovchiliklar nazariyasi; madaniy e'tiqodlar tizimi nazariyasi; iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy nomuvofiqliklar nazariyasi; geografik tengsizlik nazariyasi; kumulyativ va siklik o'zaro bog'liqliklar nazariyasi (Addae-Korankye 2019: 56-57, 58-59)”²¹. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu nazariyalarda ilgari surilgan g'oyalar hamda ularni amalga oshirish bilan bog'liq chora-tadbirlarning aksariyat qismi o'z mazmuniga ko'ra, aholi turmush va mehnat faoliyatining mahalliy-hududiy shart-sharoitlariga bog'liq hisoblanadi.

O'zbekistonda kambag'allikni vujudga kelishi va kengayishining asosiy omillari mahalliy-hududiy shart-sharoitlarga bog'liqligini ifodalovchi institutsional nazariyalardan kelib chiqqan holda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish mahallalarning iqtisodiy imkoniyatlaridan keng foydalanish asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi. “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi topshirig'iga asosan tashkil etilgan ishchi guruh 2020-yil oktyabr oyidan boshlab kambag'allikni qisqartirish, aholining kam ta'minlangan va ehtiyojmand qatlamini qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmini joriy etish bo'yicha ish boshladi. Kambag'allikka qarshi kurashning yangi mexanizmi 2019-yildagi Nobel mukofoti sovrindorlari Abxijit Banerji, Ester Duflo va Maykl Kremerning metodologiyasiga asoslanadi.

Ushbu mexanizmning eng muhim jihatlari quyidagilardir. Alohida oilaning kambag'alligi ko'p sonli omillar bilan belgilanadi va har bir aholi punktida bu omillarning kombinatsiyasi har bir aniq oila uchun farq qiladi. Bu omillarga daromad darajasi, oziq-ovqat, ta'lim va oziq-ovqatdan foydalanish imkoniyati, transport infratuzilmasi kiradi. Binobarin, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga yondashuvlar va chora-tadbirlarning o'zi aniq mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilishi, ularning samaradorligi amaliy qo'llash va olingan natijalar bilan isbotlanishi kerak”²².


Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-avgustdagi 504-son “Hududlarda «mahallabay» ishlash asosida oilaviy

²¹ Аржаев Ф.И., Андрюхин В.Ю., Сапрынская Д.В. Теоретические основы моделирования системной бедности на примере Центральной Азии. - Вестник МГИМО-Университета. 2022. 15(6). С. 86–111 DOI 10.24833/2071-8160-2022-6-87-86-111

²² Хахимов О. Борьба с бедностью начинается с мест. Экономическое обозрение №11 (250) 2020. - <https://www.cer.uz/en/post/publication/borba-s-bednostu-nacinaetsa-s-mest>

tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini ko‘paytirish orqali kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori”da tasdiqlangan nizom asosida ta’sirchan mexanizm ishlab chiqildi (6-rasm).

Mazkur mexanizmga ko‘ra, “tuman va shahar sektor rahbarlari tomonidan «og‘ir» mahallalar belgilanadi. Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun «o‘shish nuqtalari» aniqlanib, har bir tadbirkorlik yo‘nalishiga «yetakchi» tadbirkorlar biriktiriladi. «Og‘ir» mahallalarga biriktirilgan «yetakchi» tadbirkorlarga 3 yil muddatgacha yillik 10 foiz stavkada mahalla uchun 2 milliard so‘mgacha kreditlar kooperatsiya asosida ajratiladi. Har bir «og‘ir» mahallaga ajratilgan 2 milliard so‘m mablag‘larning 10 foizgacha bo‘lgan qismi ularning tegishli ixtisoslashuv yo‘nalishlarida bittadan namuna va o‘rnak ko‘rsatadigan tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladi. «Yetakchi» tadbirkorlarga kooperatsiya asosida ishlayotgan fuqaro tomonidan ishlab chiqarilayotgan (yetishtirilayotgan) mahsulotlarni sotib olish yoki shartnomaga asosan fuqaroga oylik ish haqi to‘lash sharti o‘rnatiladi”²³.



6-rasm. Mahallaning «o‘shish nuqtalari» (ixtisoslashuv yo‘nalishlari)ni belgilash orqali kambag‘allikni qisqartirish²⁴.

Chizmadan ko‘rinadiki, har bir mahalla o‘z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, muayyan faoliyat turiga ixtisoslashuvi natijasida yangi ish o‘rinlari yaratadi, fuqarolarning daromadini oshirib, kambag‘allik darajasini qisqartirish imkoniga ega bo‘ladi. Jumladan, “Onlayn mahalla” elektron portalining “O‘shish nuqtalari” deb nomlangan sahifasida qoramolchilik, qo‘y va echkichilik, parrandachilik, kartoshkachilik, sabzavotchilik, poliz ekinlari, bog‘dorchilik, uzumchilik, issiqxona, hunarmandchilik, tikuvchilik, maishiy xizmat ko‘rsatish,


²³ Ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan mahallalarda oilalarning daromad manbai yaratiladi. 2021-yil 9-avgust. <https://yuz.uz/news/ishsizlik-darajasi-yuqori-bolgan-mahallalarda-oilalarning-daromad-manbai-yaratiladi>

²⁴ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

oziq-ovqat va nooziq ovqat savdosi va boshqa ixtisoslik yoʻnalishlari belgilab berilgan²⁵.

Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, mahallaning birlamchi ixtisoslashuvi natijasida amalga oshirilgan iqtisodiy faoliyat asosida qoʻshimcha, yangi imkoniyatlar ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, chorvachilik bilan shugʻullangan uy xoʻjaliklarida goʻsht bilan bir qatorda teri, suyak, mahalliy oʻgʻit va boshqa mahsulotlar vujudga keladiki, aksariyat hollarda ularni yoʻq qilish ham maʼlum darajada muammoga aylanadi. Holbuki, mazkur ikkilamchi xomashyo va materiallarni qayta ishlab, qoʻshimcha daromad olish mumkin. Biroq, mahallaning oʻzida ushbu ikkilamchi faoliyat bilan shugʻullanish uchun ishchi kuchi va boshqa resurslar yetishmasligi mumkin. Shunga koʻra, fikrimizcha, mazkur iqtisodiy faoliyat turlari bilan shugʻullanuvchi mahallalarni aniqlab, ular bilan “ikkilamchi” mahallalararo ixtisoslashuv doirasidagi iqtisodiy faoliyat (kooperatsiya)larni yoʻlga qoʻyish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu taklif 6-rasmda uzuq chiziqli chizma shaklida ifodalangan.

Xitoy tajribasi shuni koʻrsatadiki, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish kambagʻallikni kamaytirishning eng muhim omilidir. Mahallalardagi mavjud boʻsh ish oʻrinlari hamda xoʻjalik yurituvchi subyektlarning doimiy va mavsumiy ishchilarga boʻlgan talabini aniqlash orqali ishsizlar, birinchi navbatda, “temir daftar”, “ayollar daftari” va “yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni boʻsh ish oʻrinlariga joylashtirilib, haq toʻlanadigan jamoat ishlariga jalb qilib kelinmoqda.



7-rasm. 2017-2023-yillarda Oʻzbekiston Respublikasida tadbirkorlik sohasida amalga oshirilgan muhim islohotlar natijasi²⁶.

²⁵ Oʻsish nuqtalari. - <https://online-mahalla.uz/public/pages/growthpoints-page>

²⁶ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi maʼlumotlari asosida tuzilgan.

Mahallada istiqomat qiluvchi aholining oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish, jumladan, ularning hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqadan samarali foydalanish, kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa turdagi faoliyatni yo'lga qo'yishi uchun oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlar olishda ko'maklashilmoqda. Natijada mahallasidan uzoqlashmagan holda kichik biznes tashkil etib, o'zi, oilasi va hududidagi kam ta'minlangan oilalar a'zolarini ish bilan band qilayotgan tadbirkorlik subyektlari soni ortib bormoqda (7-rasm).

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab biznesni ro'yxatga olish osonlashtirildi. Natijada ro'yxatga olingan tadbirkorlik subyektlari soni 2017-yilda 225,6 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil so'ngiga kelganda 555,9 mingtaga yetdi yoki 2017-yildagiga nisbatan 2,4 barobar ko'paydi. 2017-2023-yillarda mobaynida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari 2,3 barobarga o'sgan lekin o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6 foizga kam demakdir. Lekin ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlari esa 30,2 mingtasi tugatilgan.

Mazkur tadbirkorlik subyektlarining faoliyat yuritmasligi holatlari o'rganilganda boshlang'ich sarmoyaning, aylanma mablag'larning yetishmasligi, ishlab-chiqarish xomashyosining taqchilligi, kredit olish uchun garov mulkining yo'qligi va eng asosiysi, tadbirkorlarning sohaga oid qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan yetarli darajada xabardor emasliklari sabab bo'lmoqda. Hozirgi kunda, hokim yordamchilarga berilgan vakolat va huquqlar tomonidan tugatilgan va faoliyat ko'rsatmayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini, uning asosiy sabablari o'rganish hamda ular faoliyatini tiklashga amaliy ko'maklashish, shuningdek endi ish faoliyatini boshlagan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlarning yo'lida g'ov bo'layotgan byurokratik to'siqlarni bartaraf etishda va qayta oyoqqa qo'yishda xizmat qiladi.

Kambag'allik darajasini o'lchashning asosiy ko'rsatkichlaridan biri aholi daromadlaridir. O'zbekistonda aholi daromadlari va unga ta'sir etuvchi omillar asosida ko'p omilli ekonometrik model tuzish, tuzilgan modelni turli testlar orqali tekshirish hamda modelning statistik ahamiyatligini aniqlab, kelgusi davrlarga prognozlash, ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi.

Ko'p omilli ekonometrik modelni qurishda natijaviy va ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagi belgilanishlar kiritildi:

Natijaviy omil:

